

**„ABDULLA QODIRIY O‘TKAN KUNLAR ASARI“**

*Surxandaryo viloyati Denov tumani*

*Maktabgacha va maktab ta’limi tasarrufidagi 41-umumta’lim maktabi  
ona tili va adabiyot fani oqituvchisi*

***Kenjayeva Sabohat Bozorovna***

<i>Dars bosqichlari</i>	<i>Vaqt</i>
Tashkiliy qism.	
Yangi mavzuni boshlashga hozirlik	
Yangi mavzuni yoritish	
Guruhlarda ishlash. Yangi mavzuni tahlil qilish	
Darsni yakunlash	
Uyga beriladigan topshiriqlar	

Darsning maqsadi:

- 1. Ta’limiy maqsad: Milliy ruh to‘g‘risidagi nazariy ma’lumotlarni o‘quvchilar ongiga singdirish.
- 2. Tarbiyaviy maqsad: Ajdodlarimizdan meros qolgan milliy qadriyatlarni ulug‘lashga undash.
- 3. Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning erkin, ijodiy mulohaza yuritish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Dars materiallari va jihozlari: 10 sinf, adabiyot “ darsligi. .

2 Mavzuga oid chizmalar

3.Doska, bo‘r, daftар.

4.Tarqatma material: darsda o‘rganiladigan asosiy atamalar va tushunchalar yozilgan kartochkalar.

I. Tashkiliy qism:

5.Sinfda o‘quvchilarni darsga jalb qilib, ishchi muhitni yaratish.

6.Sinf holati bilan tanishish va davomadni aniqlash

II. Darsning mazmuni:

7.Darslikning dasturi, maqsadlari va vazifalari.

8.Darslikdagi materiallar tizimi va uni o'rganish uslubiyati va usullari.

9.O'rganiladigan ma'lumotlar hayotiy bog'liqligi..

III. Dars mazmunini ro'yobga chiqarish ustida ishlash:

11. O'qituvchining 10-sinfdagisi „adabiyot tarixi“ fani vazifalari va xususiyatlari, darslikdagi materiallar tizimi, uni o'rganish uslubiyati va usullari to'g'risida tushuntirish.

**Dars usuli:** "Aqliy hujum", "Venn" diagrammasi, "Muammoli vaziyat", "Nuqtai nazaring bo'lsin", "Guruhlarda ishlash", "Davra suhbati"

**Dars turi:** Umumlashtiruvchi, noan'anaviy.

**Dars uslubi:** Suhbat, o'yin

**Dars jahozi:** Slaydlar, "O'tkan kunlar" romanidan rasmli lavhalar, tarqatmalar, rag'batlar.

**Fanlararo bog'lanish:** Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, tarix, tasviriy san'at.

Sinf guruhlarga bolib olinadi. Guruhlarga bir nechta shartlar beriladi va shartda faol ishtirok etgan o‘quvchi "rag'bat" kartochkasi bilan baholanib boradi. Dars yakunida "rag'bat" sanab o‘quvchilar baholanadi. Demak

1-shartimiz "Adib hayot va ijodiga nazar"

Abdulla Qodiriy ijodi haqida o‘quvchilar navbatma- navbat so’zlaydilar:

Abdulla Qodiriy adabiy siyimosi XX asr o‘zbek adabiyoti tarix ida o‘ziga xos o‘rin tutadi. U o‘zbek romanchiligining asoschisisi sanaladi.

Abdulla Qodiriy 1894-yili 10-aprelda Toshkentda bog‘bon oilas ida tug‘ilgan. Dastlab musulmon maktabida, keyin rustuzem mакtab i hamda Abulqosim shayx madrasasida ta’lim olgan; Moskvadagi adabiyot kursida o‘qigan. 1917-yilgi oktabr oyidagi davlat to‘ntarishidan so‘ng Eski shahar oziqa qo‘mitasining sarkotibi, «Oziq ishlari» gazetasining muharriri, «Mushtum» jurnali tashkilotchilaridan biri sifatida ijtimoiy hayotga faol aralashadi. Uning asarlari vaqtli matbuotda Julqunboy, Ju-boy, Dumbulboy, Dumbulnisa, Kalvak Mahzum, Toshpo‘lat tajang, Ovsar kabi o‘nlab maxfiy imzolar bilan bosilib turadi. Abdulla Qodiriy 1914-yili Rahbarnisa Rasulmuhammadboy qiziga uylanadi. Ulardan Nazifa (1916), Habibulla (1918), Adiba (1924), Mas’ud (1926) hamda Anisa (1928) ismli farzandlar dunyoga keladi. Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlanishi 1910-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Dastlab millatparvarlik, ma’rifatparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan «To‘y», «Ahvolimiz», «Millatimga», «Fikr aylagil» kabi she’rlar, «Baxtsiz kuyov» nomli drama hamda «Juvonboz» hikoyasini yozdi. Abdulla Qodiriy ana shunday jadidona kayfiyatdagи asarlarida millatni ichdan yemiradigan xurofotlarni tanqid qiladi; xalqni o‘zligini anglashga, yangilikka chaqiradi. Yozuvchining «Baxtsiz kuyov»dramasi (1915) bevosita Behbudiyning «Padarkush» dramasi ta’sirida yozilgan. Dramada muallif hashamatli to‘y, ortiqcha sarf-xarajatlar va ularning ko‘ngilsiz oqibatlar ini ochiq-oydin ko‘rsatadi. Uning 1916-yilda yozgan «Uloqda» hikoyasi bilan dunyo adabiyotdagи nazariy mezonlarga mos keladigan o‘zbek realistik hikoyachiligini boshlab berdi. Abdulla Qodiriy o‘z ijodiy taqdirini matbuot bilan bog‘ladi. Yuzla b publitsistik maqolalar, «Kalvak Mahzumning xotira daftaridan», «Toshpo‘lat tajang nima deydir?» kabi hajviy asarlar yozdi. Hayotni kuzatib, voqealarga nisbatan turli yo‘sinda hajviy-tanqidiy munosabatlar bildirdi. Shu jarayonda «felyetonlar qiroli» nomini oldi. Abdulla Qodiriyning mashhur «O‘tkan kunlar» romanining ayrim fasllari dastlab 1923–1924-yillari «Inqilob» jurnalida e’lon etildi. 1925–1926-yillari romanning har bir bo‘limi alohida kitob holida bosildi. «O‘tkan kunlar» yaratilgan davr o‘zbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi o‘rni

masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik edi. Adib bu roman orqali xalqning milliy ongini uyg‘otmoqchi bo‘ldi. «Tariximizning eng kirlik, qora kunlari» – yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi «xon zamonlari» XIX asr miqyosidagi mudhish tarixiy jarayonlarning haqiqatidan xalqqa saboq bermoqchi bo‘ladi. «O‘tkan kunlar» romanining ma’no-mundarija doirasi, aslida, ancha keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Bir oq ular orasida yurtning, millatning taqdiri mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. El-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning pafosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt is tiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo‘liga hayotini, jonini tikkan «O‘tkan kunlar»da Otabek bilan Kumushning ishqiy sarguzashtlari juda katta mahorat bilan tasvirlanadi. Muallif oshiql arning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni – Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Qodiriyl ishq sarguzashtlari fonida o‘lkaning tutqunlikka yuz tutishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolar degan fikri g‘oyat ustalik bilan bayon qiladi. Abdulla Qodiriyl qalamining sehri shundaki, romanda ijtimoiy va maishiy hayot, odamlar turmushi, taqdiri, tabiat, ular ruhiyatidagi nozik jarayonlar bor holicha butun ziddiyatlari bilan ko‘rsatiladi.

2-shart. “Aqliy hujum” usuli “AQLIY HUJUM” USULI - usulidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi. SHu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat ogzaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu usul ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. "Aqliy hujum" usuli ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi

I. Guruh. Asar mazmuniga tayangan holda Zaynabga bo‘lgan munosobatingizni bayon eting

II. Guruh. Otabek bugungi siz yoshlar uchun qay darajada o‘rnak bo‘la oladi?

II. Guruh. Xasanali va Otabekning munosobatidan nimalarni o‘rgandingiz?

3-shart.. “Nuqtai nazaring bo‘lsin” usuli

“NUQTAI NAZARING BO‘LSIN” USULI.

• Maqsadi:

• -o‘quvchilar muayyan muammoga o‘z nuqtai nazarini asosli dalillab, ximoya qilishga o‘rganadilar;

• -o‘quvchiga muammo muhokamasi jarayonida o‘z fikrini o‘zgartirish imkonini berish;

• -o‘qituvchi barcha o‘quvchilarni munozaraga jalb etish va sinfdagi hamma o‘quvchilar o‘rtasida munozara jonlanishini yuzaga keltirishi mumkin.

• “Nuqtai nazaring bo‘lsin” usuli o‘quvchilar o‘rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o‘z fikrlarini o‘z sinfdoshlaridan ularning nuqtai nazarini o‘zgartirishga ishontiradigan g‘oyalarni eshitib o‘zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonni berish maqsadida qo‘llanadi. O‘quvchilar shuningdek, maktab, mintaqa, respublika va jumla insoniyat uchun xarakterli bo‘lgan eng dolzarb muammolar o‘z nuqtai nazarlarini asosli dalillash va himoya qilishga o‘rganadilar. O‘quvchi ochiqdan-ochiq savollar usuli bilan odatda dars jarayonida faol bo‘lmagan o‘quvchilarni munozarada ishtirok etishga majbur qiladi

I - Guruh. ....O‘zbek oyim uncha-muncha to‘yu-azalarga “Kavshim ko‘chada qolq‘an emas”- deb bormas edi. Ushbu parcha orqali o‘zbek oyimga qanday tavsif bergen bo‘lar edingiz?

II- Guruh. “....Nima qilsang o‘zing bil, basharti o‘g‘ling ko‘nmasa, men zo‘rlamayman.” Yusufbek hojining ushbu so‘zlariga tayanib uning fe’l-atvori haqida nima deya olasiz?

III Guruh. “.... Qarshilig‘im shundadirki, kuyav toshkandlik bo‘lg‘andan so‘ng qizingizni o‘zi bilan birga olib ketar va siz bilan meni yolg‘iz bolamizdan ayirar...

Bunga qolg‘anda sizni bilmasam-da, ammo mening bunday judoliqqa sira toqatim yo‘qdur” Oftoboyimni qizining ayanchli qismatida aybdor deb bilasizmi?

4-shart. “Muammoli vaziyat” usuli

- “MUAMMOLI VAZIYAT” USULI - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, hamda ularning echimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan usuldir.

“Muammoli vaziyat” usuli uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi zarur. Ular qo‘yilgan muammoning echimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda echimni topa olmaslik, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» usuli qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o‘rganadilar

### I-guruh

Kumushda ham salbiy xususiyatlar bor deb o‘ylaysizmi?

Qoralovchi	Oqlovchi

### II-guruh

Homid salbiy qahramonmi yoki ijobiy?

Qoralovchi	Oqlovchi

### III-guruh

Xushro‘y kim? Qahramonlar taqdirida uning qanday o‘rni bor?

Qoralovchi	Oqlovchi

5-shart. “Venn diagrammasi”



IV. Yangi mavzu Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” romani haqida

“O’tkan kunlar” romani milliy ruh juda bo‘rtiq aks etganligi bilan ajralib turadi.

Otabekning ota-onasi bilan Qutidor va Oftob oyimlarning qudalari hamda kuyovlari bilan munosobatlari tasvirlangan o‘rinlarda faqat o‘zbekkagina xos fikrlash va ta’sirlanish yo‘sini juda go‘zal ko‘rsatilgan “- O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...

Otabek ma’lumki, ularning “qilib qo‘yan yoki qilmoqchi bo‘lg‘an ishlarini” albatta bilar edi. Shundoq ham bo‘lsa bilmaganga solindi:

- Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari albatta noma’qul bo‘lmas, - dedi”.

Otabekning otasiga bergan ushbu javobi orqali ham ota-onasiga bo‘lgan hurmatini va faqatgina o‘zbek mentalitetiga xos andishani yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Yoki Kumushning o‘limidan oldin bemor xolatida yotganida oldiga qaynotasi Yusufbek xoji kirgandagi quyidagi holatga e’tiborimizni qaratsak: “Ko‘zini ochib besaranjom unga nazar tashladi va tanib...qo‘zg‘almoqchi bo‘ldi”. o‘zbek qizlariga xos ibo, hayo ushbu parchada o‘z aksini topgan. O‘zbek xalqi mehmondo‘st, bolajon xalq.

“O’tkan kunlar” asarida ham Abdulla Qodiriy xalqimizga xos mehmondo‘stlik tuyg‘usini mohirona tarzda tasvirlagan:

“...o‘zbek oyim qo‘shti xotinlardan bir nechasini hasharga aytib, hammani joy-joyig‘a qo‘ydirg‘an havli yuzini ham yog‘ tushsa yalag‘undek holga keltirgan edi. Ammo o‘z uyini bo‘shtadirib, gilam solib qo‘yg‘anig‘a endi uch kunlab bor, qudalarning ziyofati uchun kerak bo‘lg‘an hamma narsalarni ham hozirlatqan, ular kelib tushdi deguncha bo‘g‘izlatish uchun, deb bir g‘o‘non qo‘yni og‘ilning ustuniga qantattirib qo‘yg‘on edi.” “O’tkan kunlar”ning milliyligi odamdagি ayni shunday nozik, ko‘zga tashlanavermaydigan jihatlarni topib tasvirlashda namoyon bo‘ladi. o‘zbek xalqi farzandlariga milliy ruh hissini oilada singdirishga harakat qiladi. Zero, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev “Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, xech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir” deb bejiz aytmaganlar.

6-shart. “Davra suhbati” usuli. Bu usuldan darsni mustahkamlash maqsadida ham foydalanish mumkin

“Davra suhbati” usuli - aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr- mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish usulidir. “Davra suhbati” usuli qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbating og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatica ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi. Ta’lim oluvchilar esa o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi. Agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

1.Savol-javob va mavzuning asosiy mazmunini takrorlash orqali amalga oshiriladi.

- Bugun ota-onva farzand munosobati qay darajada deb o'ylaysiz?
- Yoshlar tengdoshlar o'rtasidagi muomala sizni qoniqtiradimi?
- Kelin – qaynona – ona rishtalari namuna olsa arzigulik holatdamikin?
- Milliy liboslarimiz nima uchun butun dunyoda e'zozlanadi?

2..Guruhlarda ishslash yakunlarini chiqarish.

V. Dars yakunlarini chiqarish:

O'qituvchi o'quvchilar bajargan yozma va og'zaki javoblar uchun qo'yilgan baholarni e'lon qiladi va yuzaga kelgan savollarga javob qaytaradi.

VI. Uyga vazifa:O'r ganilgan mavzu savollariga javoblar tayyorlash.